


# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 14-yanvar, № 10 (8633) Yakshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI TASHKIL ETILGANINING 32 YILLIGI VA VATAN HIMOYACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI

Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va generallar!

Muhtaram Qurolli Kuchlarimiz faxriylari!

Qadrli vatandoshlar!

Siz, azizlarni, ko‘p millatli butun xalqimizni mamlakatimiz hayotidagi muhim sana — O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

**Xalqimiz sizlar kabi mard va jasur harbiylarimiz timsolida Vatanni himoya qilishdek dunyodagi eng ulug‘ ishni sharaf bilan ado etib, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo singari buyuk ajdodlarimizning shonli an’analarini munosib davom ettirib kelayotgan ona yurtimizning chinakam qalqonlarini ko‘radi.**

**Mana shu qutlug‘ ayyomda barchamiz sizlarning metin irodangiz, jangovar ruhingiz va shiddatingizga qarab, Vatanimiz mustaqilligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayoti, sarhadlarimiz daxlsizligi mustahkam ishonchli qo‘llarda ekanini yanada chuqur his etmoqdamiz.**

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida erishayotgan barcha yutuq va marralarimizda Qurolli Kuchlarimiz va ularning saflarida o‘z vazifasini sidqidildan ado etayotgan ming-minglab harbiylarimizning munosib hissasi bor, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Xalqimizning asl o‘g‘lonlariga xos fazilatlar ulug‘lanadigan mana shu unutilmas lahzalarda Vatan oldidagi burchini bajarish chog‘ida qahramonlarcha halok bo‘lgan botir jangchilarimizni yod etib, ularning o‘lmas xotirasi oldida ta’zim qilamiz.

Ishonchim komil, ular o‘zlarining jasorati va o‘chmas nomlari bilan el-yurtimiz qalbida hamisha barhayot yashaydi, jangovar saflarda ularning o‘rni, aziz xotirasi hech qachon yo‘qolmaydi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Keyingi yillarda **“Xalq va armiya — bir tanu bir jondir”** degan ezgu g‘oya asosida Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirish, harbiy qurilish sohasini tubdan modernizatsiya qilish bo‘yicha olib borayotgan islohotlarimiz natijasida milliy armiyamizda chuqur sifat o‘zgarishlari yuz bermoqda, uning saflarida xizmat qilish tom ma’noda shon-sharaf ishiga aylanib bormoqda.

Bu borada, ayniqsa, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarimiz muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Bugungi kunda harbiy xizmatchilarimizning professional mahorati va obro‘-e’tibori jahon miqyosida ham yuksalib bormoqda. Buni mamlakatimiz Qurolli Kuchlari vakillarining nufuzli xalqaro harbiy musobaqalarda faol ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni egallab kelayotgani misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolari va faxriylarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha ham kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

**Ana shunday sa’y-harakatlarimiz hamda Milliy armiyamiz va xalqimizning faol hamkorligi tufayli Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz taraqqiyoti, tinchligi va barqarorligining ishonchli kafolatiga, chinakam jasorat va matonat maktabiga aylanmoqda, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.**

Qadrli do‘stlar!

Dunyo miqyosidagi hozirgi o‘ta murakkab vaziyatda mamlakatimiz xavfsizligi va manfaatlarini ishonchli ta’minlash yanada dolzarb vazifamizga aylanmoqda.

Shuni hisobga olgan holda, **“O‘zbekiston — 2030”** strategiyasida mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini, jamiyatimizda tinchlik va totuvlikni ta’minlash, yurtimiz mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirish masalalari ustuvor yo‘nalishlar etib belgilandi.

Shu asosda mamlakatimizning harbiy-ilmiy va ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirish, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini oshirish, ularni zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan ta’minlash, qo‘shinlar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga yanada ulkan ahamiyat qaratamiz.

Buyuk Amir Temur bobomiz aytganlaridek, **g‘alaba taqdirini avvalo qo‘shinning jangovar ruhi va tayyorgarligi, ma’naviy qudrati va mustahkam irodasi hal qiladi**.

Shu bois milliy armiyamizning chinakam kuch-qudratini belgilab beradigan qo‘rqmas va dovyurak harbiylarimiz qalbida jangovar ruhni oshirish, ularni har qanday qiyinchilik va sinovga chidamli va matonatli etib tarbiyalash bundan buyon ham e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Aziz Vatan himoyachilari!

Sizlarni bugungi qutlug‘ bayram bilan yana bir bor samimiy tabriklab, barchangizga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt, oliyjanob va mas’uliyatli faoliyatingizda ulkan zafarlar tilayman.

Azmu shijoatli O‘zbekiston harbiylari — Vatanimiz posbonlariga shon-sharaflar bo‘lsin!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti,**
**Qurolli Kuchlar**
**Oliy Bosh Qo‘mondoni**

Daxldorlik

## Yoshlar mamlakatimizni rivojlantirishga hissa qo‘shishga tayyor

*Kuala-Lumpur shahrida mamlakatimizning Malayziyadagi elchixonasi tomonidan O‘zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda Yoshlar forumi tashkil etildi.*

Unda Malayziyaning Osiyo — Tinch okeani texnologiya va innovatsiya, Malayya, Al-Buxoriy, “UKM”, “City”, “Help”, “INTI”, “Cyberjaya”, “UCSI”, “UPM” va “Sunway” kabi nufuzli universitetlarida tahsil olayotgan faol vatandosh talabalar qatnashdi.

Tadbir davomida ishtirokchilarga O‘zbekistonning yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari haqida batafsil ma’lumot berildi. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan qator muhim tashabbuslar, amalga oshirilayotgan islohotlar alohida ta’kidlandi.

Yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi e’tirof etildi. Hozirgi kunda yigit-qizlar innovatsion va ijtimoiy g‘oyalarni ilgari surishda hamda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishda asosiy kuch bo‘lib xizmat qilayotganligi qayd etildi.

O‘zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi faoliyatining asosiy vazifalaridan biri xorijdagi vatandoshlarimizni birlashtirish, tegishli muammolarni o‘rganish orqali ularga ko‘mak berishdan iborat ekanligi aytib o‘tildi.

Shuningdek, O‘zbekistonning iqtidorli o‘g‘il-qizlarini chet elda qo‘llab-quvvatlash, ularni rag‘batlantirish hamda malakali mutaxassislarga respublikamizning davlat va xususiy sektorlarida bo‘sh ish o‘rinlarini topishda ko‘maklashishga qaratilgan assotsiatsiyaning loyihalari haqida ma’lumot berildi.

Forum ishtirokchilari respublikamiz hayotida faol ishtirok etishga, mamlakatimizni yanada rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shishga tayyor ekanliklarini bildirdi.

Yakunda O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan e’lon qilingan Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yilida vatandosh talabalar bilan turli madaniy-ma’rifiy va sport tadbirlarini birgalikda tashkil etishga kelishib olindi.

**“Dunyo” AA.**
Kuala-Lumpur

## MUSTAQILLIGIMIZ, TINCH VA OSOYISHTA HAYOTIMIZ KAFOLATI

*Poytaxtimizdagi “Xalqlar do‘stligi” san’at saroyida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi hamda 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi.*

*O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimi vakillari Vatanimizning shonli tarixi, shiddatli yangilanishlar, taraqqiyotimiz va ma’rifiy yuksalish ramzi bo‘lgan “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida bo‘lib Mustaqillik monumenti poyiga gullar qo‘ydi.*

*Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan muhtasham san’at saroyida tashkil etilgan tantanali tadbirga senatorlar, deputatlar, hukumat a’zolari, askar va serjantlar, ofitser va generallar, Qurolli Kuchlar faxriylari, ota-onalar, mamlakatimizda akkredatatsiyadan o‘tgan diplomatik korpus hamda xalqaro tashkilotlar xodimlari va keng jamoatchilik vakillari taklif qilindi.*

*Saroy foyesida mamlakatimiz harbiy salohiyatini, sohadagi yutuq va yangiliklarni namoyish etuvchi ko‘rgazma tashkil qilindi.*

*O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangradi.*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigini mudofaa vaziri, general-leytenant Bahodir Qurbonov o‘qib eshittirdi.*




Ta’kidlanganidek, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Qurolli Kuchlarimizni isloh qilish va har tomonlama modernizatsiyalash, ularni zamonaviy talablarga to‘liq javob beradigan, yangi O‘zbekistonning mustaqilligi va suvereniteti, xalqimiz xavfsizligi va farovonligini kafolatli ta’minlashga qodir milliy armiyaga aylantirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida milliy armiyamizning qiyofasi va salohiyati ham tubdan o‘zgardi. Bugungi kunda O‘zbekiston Qurolli Kuchlari mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minlashga qodir, harakatchan va puxta qurollangan qudratli kuchga aylandi.

Harbiylarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish borasida keng qamrovli ishlar olib borilayotir. Soha xodimlarini zamonaviy turarjoylar bilan ta’minlash, salomatligini mustahkamlash, zarur ijtimoiy kafolatlarni yaratish, oliy ta’lim va ta’limning keyingi bosqichi bilan qamrash, kasbiy, jismoniy salohiyatini yuksaltirish borasida ko‘plab amaliy tashabbuslar hayotga tatbiq etilmoqda.

Ayni paytda mamlakatimiz harbiy tizimini shiddatli davrning talabiga mos tarzda takomillashtirish davlatimizning doimiy e’tiborida bo‘lmoqda. Vatanimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta’minlash, tinch va osoyishta hayotimizni asrab, mustaqilligimizni mustahkamlab, barqaror taraqqiyot yo‘limizni jadal davom ettirish masalasi hamisha ustuvor vazifa bo‘lib qolayotir.

Mamlakatimiz milliy xavfsizligini ta’minlash, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini oshirish borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish jadal davom ettirilyapti. Sohaga raqamlashtirish va ilg‘or texnologiyalar joriy etilayotgani e’tiborga molik. Bularning barchasi milliy armiyamizning tom ma’nodagi nufuzi va obro‘sini yanada yuksaltirish, faxrimiz timsoliga aylanishida asosiy omil bo‘lmoqda.

Bugungi g‘oyat murakkab globallashuv zamoni tinchlik va osoyishtalik, o‘zaro ahillik va totuvlik, boshimiz uzra musaffo osmonimiz bebaho boylik ekanini yana bir bor ko‘rsatmoqda. Bu esa osoyishtaligimizni asrashda nainki harbiylar, o‘zini shu tabarruk diyor farzandi, deb bilgan barcha hamyurtlarimizdan jonajon O‘zbekistonimizning taqdiriga, kelajagiga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashashga, uning tuprog‘ini muqaddas bilishga va bu yo‘lda mas’uliyatni teran anglashga da’vat etmoqda.





Sirojiddin VOHIDOV olgan suratlar.



Mamlakatimiz yoshlarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ham eng muhim vazifalar sirasiga kiradi. Prezidentimiz tabrigida ta’kidlanganidek, xalqimiz harbiylar timsolida Jaloliddin Manguberdi, sohibqiron Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug‘ siymolarni ko‘radi. Davlatimiz rahbari harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirishga muntazam e’tibor qaratish haqida ko‘p ta’kidlaydi. Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida o‘zbek xalqining buyuk mutafakkirlari misolida harbiy xizmatchilarning o‘z milliy va madaniy merosi bilan faxrlanish tuyg‘usini oshirishga qaratilgan harbiy-vatanparvarlik va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish borasidagi ishlar ko‘lamini kun tartibidan tushirmaslikni qayd etadi.

Tantanali tadbirda ta’kidlanganidek, bugungi murakkab globallashuv davri nainki mamlakatimiz harbiylari, balki keng jamoatchilik, butun xalqimizdan yanada hushyor va ogoh bo‘lishni, yurtimiz kelajagi, farzandlarimiz taqdiriga katta mas’uliyat bilan qarashni taqozo etmoqda. Bu boradagi dolzarb vazifalar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 22-dekabrda bo‘lib o‘tgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida alohida qayd etilgan edi.

Sohaga qaratilayotgan e’tibor natijasida yangi O‘zbekiston armiyasi mamlakat qudrati, cheksiz iftixor va sadoqat namunasiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoyishi asosida mamlakatimiz bo‘ylab o‘tkazilayotgan “Yangi O‘zbekiston armiyasi mamlakat qudrati, yuksak g‘urur va sadoqat timsolidir” shiori ostidagi harbiy-vatanparvarlik oyligida bu jihatlar yana bir karra o‘zining yaqqol ifodasini topmoqda.

— Vatanni, o‘z xalqini himoyalash yigit kishining zimmasidadir, — deydi Markaziy harbiy okrugi batalyon komandiri, “Sodiq xizmatlari uchun” ordeni sohibi, podpolkovnik Muhriddin Hoshimov. — Bizga bildirilgan ishonchni oqlash, Vatanimizga, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish hayotimizning bosh shioridir.

— Biz yosh harbiy kadrlarni tayyorlashga qaratilayotgan e’tibordan mamnunmiz, — deydi Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti “Yosh avlod” kengashi raisi Zayniddin Adashev. — Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar natijasida tizimimiz moddiy-texnika bazasi tubdan yangilanmoqda, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yo‘lida qator imtiyozlar berilmoqda. Eng muhimi, xalqimizning Vatan himoyachilariga bo‘lgan ishonchi tobora ortib bormoqda. Bu ishonch bizga Vatanimiz tinchligi va osmonimiz musaffoligini ko‘z qorochig‘idek asrashimiz uchun kuch-quvvat bag‘ishlaydi.

Tantanali marosimda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari badiiy jamoalari, san’at ustalari va yosh iste’dodlar ijrosida katta bayram konserti namoyish etildi.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva, Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov ishtirok etdi.

**“Xalq so‘zi”.**






# XALQ VA ARMIYA —

## Mustahkam iroda, so‘nmas shijoat sohiblari

*O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil topganining 32 yilligi hamda 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan xorijda bo‘lib turgan vatandoshlar xalqimizga va mamlakatimiz harbiy xizmatchilariga o‘zlarining samimiy qutlovlarini yo‘llamoqda.*

*Tabriklarda yurt posbonlarining Vatanimiz himoyasiga qo‘shayotgan hissasi e’tirof etilgani holda muqaddas qasamyodga sodiqlik, quruqlikda va havoda o‘z burchini sharaf bilan bajarayotgan jasur jangchilarga hurmat va iftixor izhor qilingan.*

**Abdumajid ALIMOV (podpolkovnik),**
**Aziz NABIYEV (podpolkovnik),**
**O‘zbekiston Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari:**

— Biz O‘zbekiston Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari Turkiyada o‘quv amaliyotida tajriba almashish bo‘yicha xizmat safarida bo‘lib turibmiz. Ayni kunlarda yurtimizda O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni keng nishonlanmoqda.

Shu munosabat bilan Qurolli Kuchlarimiz safida xizmat qilayotgan safdoshlarimizni, ustozlar, murabbiylar va faxriylarimizni hamda yurtdoshlarimizni ushbu qutlug‘ sana bilan chin yurakdan muborakbod etamiz.

Aziz vatandoshlar, jannatmonand O‘zbekistonimizning sarhadlari, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ko‘z qorachig‘idek asrash yo‘lidagi sharafli xizmatingizda omad yor bo‘lsin!

**Nurbek RAHMATULLAYEV,**
**Malayziyaning “UCSI” universiteti magistranti:**

— Men “El-yurt umidi” jamg‘armasi ko‘magi asosida Malayziyadagi “UCSI” universitetining xalqaro biznesni boshqarish fakultetida magistratura bosqichida tahsil olyapman.

Fursatdan foydalanib, barcha yurtdoshlarimizni, xususan, harbiylarimizni 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Ushbu qutlug‘ ayyomda o‘z hayotini Vatan himoyasidek ulug‘ ishga bag‘ishlagan siz, azmu shijoatli harbiylarimizni sharaflab, xalqimiz, mamlakatimiz tinchligi va xavfsizligi yo‘lidagi xizmatlaringiz uchun barchangizga chuqur minnatdorlik bildiraman.

**Aziz XALILOV (podpolkovnik),**
**Islomjon ISOQJONOV va Mirjalol XAYRULLAYEV (kursantlar),**
**Rossiyaning Kostroma shahridagi S. K. Timoshenko nomidagi Radiatsion kimyoviy biologik himoya harbiy akademiyasi:**

— Sizlarni O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil topganining 32 yilligi hamda 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni bilan Kostroma shahrida joylashgan S. K. Timoshenko nomidagi Radiatsion kimyoviy biologik himoya harbiy akademiyasida tahsil olayotgan kursant va ofitserlar nomidan chin qalbimizdan samimiy muborakbod etamiz.

Ushbu ayyom munosabati bilan sizlarga sihat-salomatlik, oilaviy baxt-saodat hamda sharafli va mashaqqatli xizmatlaringizda ulkan zafarlar tilaymiz!

**Sohibjon CHORIYEV va Shohruxbek XOLMAMATOV (kursantlar),**
**Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida joylashgan Harbiy jismoniy madaniyat instituti:**

— Barcha yurtdoshlarimizni mamlakatimiz hayotidagi qutlug‘ sana — Vatan himoyachilari kuni va Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 32 yilligi bilan Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida joylashgan Harbiy jismoniy madaniyat institutida tahsil olayotgan kursantlar nomidan chin qalbimizdan samimiy muborakbod etamiz.

Sizlarga oilaviy tinchlik, quvonch, metindek mustahkam iroda, so‘nmas shijoat, faoliyatingizga ulkan zafarlar tilab qolamiz.

Vatan himoyachilari kuni muborak bo‘lsin!

**“Dunyo” AA.**




## Mard o‘g‘lonlar jasorati unutilmaydi

*Mustaqillik yillarida el-yurt tinchligi, xalqimizning erkin va farovon hayotini ta’minlash yo‘lida jonini qurbon qilgan jasur o‘g‘lonlarimiz ko‘pchilikni tashkil etadi. Ularning qisqa, lekin ibratli umri o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun doimo o‘rnak va namuna timsoli bo‘lib kelmoqda.*

14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni oldidan shunday tadbirlardan biri Andijon viloyatining Baliqchi tumanida bo‘lib o‘tdi. Unda Chinobod shaharchasidagi 39-umumta’lim maktabining bitiruvchisi, Vatanimiz sarhadlari himoyasi yo‘lida qahramonlarcha halok bo‘lgan Asilbek Mirzayev xotirlandi.

Asilbek Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtida tahsil olgan. Vatandoshimiz 2000-yil 16-sentabr kuni Surxondaryo viloyatida bir guruh terrorchi jangari to‘dalarga qarshi kurashda qahramonlarcha halok bo‘ldi.

Tadbir davomida Asilbekning ustozlari, do‘stlari, oila a’zolari so‘z olib, xizmat davomida erishgan yutuqlari, ibratli hayoti, fazilatlari, fidoyiligi haqida so‘z yuritdi.

— Biz qahramon saboq olgan maktabda o‘qiyotganimizdan faxrlanamiz, — deydi 39-umumta’lim maktabi o‘quvchisi Sardorbek Karimov. — Uning izidan borib, Vatan himoyachisi bo‘lib, el-yurtga sadoqat bilan xizmat qilamiz.

*O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi hamda 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan Urgut va Payariq tumanlarida vatanparvarlik festivali o‘tkazildi.*

Samarqand garnizonidagi harbiy qism targ‘ibot guruhi tomonidan “Yangi O‘zbekiston armiyasi — mamlakat qudrati, yuksak g‘urur va sadoqat timsolidir” shiori ostida uyushtirilgan festival “Sog‘lom hayot uchun 5000 qadam” shiori ostidagi yurish marafoni bilan boshlandi. Tumanlar sektor rahbarlari boshchiligida o‘tkazilgan tadbirda yuzlab yoshlar ishtirok etdi.

Tadbirda so‘z olganlar xalq va armiya birdamligini yanada mustahkamlash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, aholi o‘rtasida milliy armiyamiz bilan faxrlanish tuyg‘usini oshirish kerakligini ta’kidladilar.

Festival doirasida faxriy qorovulning ko‘rgazmali chiqishlari, qo‘l jangi ustalarining jangovar harakatlari namoyish qilindi. Harbiy orkestr jamoasining Vatanni madh etuvchi kuy-qo‘shiqlari festivalga bayramona kayfiyat bag‘ishladi.

Vatan himoyachilari kuni nafaqat mamlakatimiz osmoni musaffoligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minlayotgan harbiy xizmatchilar va faxriylarni sharaflash bayrami, shu bilan birga, ushbu muqaddas vazifani ado etish yo‘lida jon fido qilgan yurtdoshlarimiz xotirasini yodga olish fursati hamdir.

Shu bois Markaziy harbiy okrug qo‘mondonligi, viloyat, tuman va shahar hokimliklari mutasaddilari ishtirokida “Vatan fidoyi farzandlarini unutmaydi” shiori ostida yurt tinchligi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatgan, xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan samarqandlik harbiy xizmatchilarning yaqinlaridan hol so‘raldi.



Jumladan, mas’ullar leytenant Sayyor Sa’dinov, leytenant Ma’rufjon Rahmonov, katta serjant Ma’rufjon Rajabov, serjant Ulug‘bek Barnoyev, kichik serjant Nodir Sobirov, kichik serjant Akmal Mirzaahmedov, kichik serjant Ulug‘bek Hasanov, oddiy askar Lochin Hayitov xonadonlarida bo‘lishdi.

Harbiy xizmatchilarning ota-onasi, turmush o‘rtog‘i va farzandlari holidan xabar olinib, Mudofaa vazirligi tomonidan ajratilgan pul mablag‘lari va okrug qo‘mondonligining bayram sovg‘alari topshirildi.

“Vatanparvarlik oyligi” doirasidagi tadbirlar davom etmoqda.

**Saminjon HUSANOV,**
**Abdulaziz YO‘LDOSHEV**
**(“Xalq so‘zi”).**

## Askar onalari e’zozda

*Muddatli harbiy xizmatchilar uchun armiyada o‘tgan har bir kun o‘qib- o‘rganish, chiniqish, mashg‘ulotlarda toblanish nuqtayi nazaridan foydali kechadi. Buni Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanida joylashgan Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismda yigitlik burchini o‘tayotgan askarlar yaxshi biladi.*



— Ayniqsa, yanvar oyi askarlar uchun esda qolarli bo‘lmoqda, — deydi harbiy qism madaniyat markazi boshlig‘i, serjant Alijon Qo‘chqorov. — O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil topganining 32 yilligi munosabati bilan bir qator madaniy-ma’rifiy uchrashuvlar o‘tkazilyapti. Ana shunday tadbirlardan biri videomuloqot tarzida uyushtirildi. Unda Qoraqalpog‘iston Respublikasining Taxiatosh tumanida joylashgan harbiy qismda xizmat burchini o‘tayotgan askarlarning ota-onalari ishtirok etdi. Videomuloqotda Asadbek Jo‘rayev, Fozilbek Usmonov, Bobirmirzo To‘xtayev singari askar yigitlar so‘z olib, armiya hayoti, u yerdagi shart-sharoitlar haqida so‘zlab berdi, el-yurt ishonchini oqlash uchun sidqidildan xizmat qilayotganliklarini aytib, ota-onalarini xursand qilishdi.

Aytish kerakki, yurtimizdagi barcha harbiy qismlarda bo‘lgani kabi ushbu maskanda ham 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni ko‘tarinki kayfiyatda qarshi olinmoqda.

Kuni kecha bu yerda Qorako‘l, Olot va Jondor tumanlaridan taklif etilgan o‘g‘il-qizlar o‘rtasida sportning shaxmat, shashka, kamondan o‘q otish, minifutbol, kurash turlari bo‘yicha harbiy qism komandiri kubogi uchun musobaqalar o‘tkazildi. G‘oliblar esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

**Istam IBROHIMOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

## Sharafli burch mas’uliyati



*Bu yil O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganiga 32 yil to‘ldi. O‘tgan tarixan qisqa davrda sohada olib borilgan tizimli islohotlar natijasida mamlakatimizning harbiy salohiyati yanada yuksaldi. Yoshlarimiz ongu shuuri va qalbida armiya bilan faxrlanish tuyg‘usi, Vatan himoyachisidek oliyjanob kasbga hurmat-ehtirom hissi yanada kuchaymoqda.*

Bu bejiz emas. Chunki bugungi kunda “Xalq va armiya — bir tanu bir jondir” degan ezgu tamoyil asosida amalga oshirilgan ishlar tufayli fuqarolarimiz armiyaning har tomonlama yordami va ko‘magini amalda his etyapti. Ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida harbiy xizmatning obro‘-e’tibori keskin ko‘tarilmoqda. Boshqacha aytganda, armiyada xizmat qilish sharafli va muqaddas kasbga aylandi.

Shu o‘rinda ayni vaqtda harbiy o‘quv yurtlarimizdagi ta’lim tizimi tubdan o‘zgarganini qayd etish joiz. Ularda bo‘lajak ofitserlarni tayyorlash va tarbiyalash hozirgi zamon talablariga to‘la mos keladigan, prinsipial jihatdan mutlaqo yangi bo‘lgan o‘quv-texnik va ma’naviy-axloqiy asosda yo‘lga qo‘yilgan.

Shuningdek, harbiy-ma’muriy sektorlar faoliyati samarasida ham harbiy shaharchalar infratuzilmasi to‘liq yangilanib, yangi o‘quv poligonlari barpo etilyapti. Bu sa’y-harakatlar natijasida harbiylarimiz xalqaro maydonlarda o‘tkazilayotgan ko‘plab nufuzli harbiy sport musobaqalarida faxrli o‘rinlarni, salmoqli yutuqlarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Birgina o‘tgan yilda O‘zbekiston armiyasi harbiy salohiyat bo‘yicha Markaziy Osiyoda birinchi, dunyo miqyosida esa 62-o‘rinda qayd etilgani e’tiborga molik.

Ushbu sohadagi o‘zgarishlar haqida to‘xtalganda, oxirgi yetti yilda Vatan himoyachilarining ijtimoiy-huquqiy himoyasi mustahkamlanib, ko‘plab oilalar uy-joy bilan ta’minlangani, harbiy xizmatchilarning farzandlari oliy ta’lim muassasalariga imtiyozli asosda o‘qishga kirganini ham alohida ta’kidlash o‘rinli.

E’tirof etish kerak, ayni chog‘da Jaloliddin Manguberdi, sohibqiron Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk sarkardalarning jangovar an’analari munosib davom ettirilmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki ular o‘z zamonasida nafaqat odil hukmdorlar, ayni vaqtda yengilmas qo‘shinlarning qo‘mondonlari ham bo‘lgan. Harbiy qo‘shinning kundalik ta’lim-tarbiyasi, jangovarlik holatini ta’minlashga yo‘naltirilgan juda ko‘p ibratli ishlarni amalga oshirgan.

Xususan, Amir Temur bobomiz barcha pog‘onadagi harbiy mansabdorlar o‘z bo‘ysunuvidagi harbiy xizmatchilar ta’lim-tarbiyasi bo‘yicha ish olib borishini ta’minlagan. Shu sababli uning jangovar qo‘shini o‘zining strategik va taktik mahorati bilan o‘sha davrning eng mukammal va kuchli armiyasi hisoblangan.

Shu nuqtayi nazardan aytganda, oxirgi yetti yildagi islohotlar, amalga oshirilgan sa’y-harakatlar natijasida Qurolli Kuchlarimiz tom ma’noda jamiyatning ajralmas qismiga, mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining ishonchli kafolatiga, yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim institutiga aylandi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Binobarin, bugungi kunda harbiylarimiz o‘zlarining professional tayyorgarlik darajasi bo‘yicha jahondagi yetakchi mamlakatlar armiyalarining harbiy xizmatchilaridan aslo qolishmasligini so‘zda emas amalda isbotlamoqda. Ular o‘zlarining mahorati, ruhan baquvvatligi, g‘alabaga bo‘lgan irodasini namoyon etgan holda buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklarini yaqqol ko‘rsatyapti.

Muxtasar aytganda, milliy armiyamiz saflarida xalqimiz farzandlarining sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilishi uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Hozir sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-farovon hayotimizni himoya qilishga qodir milliy armiyamiz saflarida kuchli, bilimdon va jasur harbiylar xizmat qilayotgani barchamizni quvontiradi. Zotan, shunday mard va jasur o‘g‘lonlarimiz bor ekan, yurtimiz doimo tinch, osmonimiz musaffo, bayrog‘imiz esa sarbaland bo‘laveradi.

**Bahrom RAHMONALIYEV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

## Chegarachilarga sovg‘a

*Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanidagi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlariga qarashli harbiy shaharchada 30 ta xonadonni o‘z ichiga olgan ikkita ko‘p qavatli xizmat uyi foydalanishga topshirildi.*



Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, Qurolli Kuchlar faxriylari, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari qatnashdi.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar ta’kidlaganidek, bugun mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalasiga alohida e’tibor qaratilyapti. Buni Dehqonobod tumanidagi mazkur harbiy shaharchada qurib bitkazilgan yangi uy-joylar va yaratilgan shart-sharoitlar misolida ham ko‘rish mumkin.

— Turmush o‘rtog‘im yetti yildan buyon Chegara qo‘shinlarida xizmat qiladi, — deydi harbiy xizmatchi Bahodir Nurmatovning turmush o‘rtog‘i Gulnozaxon Nurmatova. — Shu vaqtga qadar ijarada yashab kelayotgan edik. Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 32 yilligi bayrami oldidan yangi xizmat uyi berilgani barchamizni quvontirdi. Bu yerda bir oila to‘kis yashashi uchun barcha sharoit muhayyo.

Shu kuni harbiy shaharchada barpo etilgan 25 o‘rinli yangi maktabgacha ta’lim muassasasining ham foydalanishga topshirilishi yurt posbonlari va ularning oila a’zolari uchun haqiqiy bayram tuhfasi bo‘ldi.

**Jahongir BOYMURODOV**
**(“Xalq so‘zi”).**






# BIR TANU BIR JON

## Olis hududlarda bayram shukuhi

*Vatan himoyachilari kuni bayramining shukuhi Navoiy viloyatining olis hududlarida ham yurtdoshlarimiz qalbida faxr-iftixor tuyg‘ularini yuksaltirmoqda.*

*Olis Tomdi tumanining Hayot mahallasiga Zarafshon shahrida joylashgan harbiy qism xizmatchilarining “Vatanparvarlik” karvoni tashrif buyurib, “Yangi O‘zbekiston armiyasi — mamlakat qudrati, yuksak g‘urur va sadoqat timsolidir” shiori ostida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi.*

Unda mustaqillik yillarida harbiy sohada amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida mamlakatimiz xavfsizligi va tinchligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilishga qodir, mutlaqo yangi milliy armiya tashkil topgani, qo‘shinlar shayligi, jangovar qobiliyati haqida so‘z yuritildi.

Harbiy xizmatchi Nodirbek Boboyevning aytishicha, yoshlarda vatanparvarlik, yurtga sodiqlik tuyg‘ularini kamol toptirishda bu kabi uchrashuvlarning o‘rni beqiyos.

Tadbirda faxriy qorovul qo‘shinlarining jangovar saf chiqishlari hamda qo‘l jangi namoyishi unda qatnashayotgan yoshlar qalbida harbiy kasbga qiziqish shijoatini oshirgan bo‘lsa, harbiy orkestr jamoasi ijrosidagi quy-qo‘shiqlar yig‘ilganlarga xush kayfiyat baxsh etdi.

Bayram munosabati bilan Karmana tumanining “Yangi O‘zbekiston” mavzesida 28 nafar harbiyning oilasiga yangi uy-joylarning kaliti topshirildi. Shu munosabat bilan so‘z olganlar Qurolli Kuchlarimizni zamonaviy qurol-aslahalar bilan ta’minlash, harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini oshirish barobarida ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, uy-joy



hamda maishiy sharoitlarini yaxshilashga alohida e’tibor qaratilayotganini ta’kidladi.

— Turmush o‘rtog‘im yigirma yildan buyon harbiy xizmatda, — deydi Dilrabo Jo‘rayeva. — Olti nafar farzandimiz bor. Shu paytga qadar Qashqadaryoda, Buxoroda xizmat paytlarida ijarada yashab kelardik. Bugun hamma qulaylikka ega uch xonali xonadonning kalitini qabul qilib oldik. Bu bizga kutilmagan sovg‘a bo‘ldi.

Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan bunday tadbirlar viloyatning turli korxona va tashkilotlari, mahallalarida ham davom etmoqda.

**Temur ESHBOYEV**
**(“Xalq so‘zi”).**



## Yurt xizmatida kamarbasta

*Farg‘ona shahridagi 29-umumta’lim maktabi o‘quvchisi Asilbek Yaxshiboyev har kuni ishdan kelgan otasini harbiylarga xos tartib bilan kutib olishga odatlangan. Bu unga ikki akasi — Elnur va Abbosdan o‘tgan. Shu tariqa Yaxshiboyevlar oilasida harbiycha tartib-intizom allaqachon kundalik turmush tarziga aylanib ulgurgan, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.*

Oila sohibi Toir Yaxshiboyev ayni paytda Milliy gvardiyaning Farg‘ona viloyati bo‘yicha boshqarmasida shartnoma asosida xizmat qiladi, I darajali serjant. U O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safidagi 22 yillik xizmati davomida ko‘plab yutuqlarga erishib kelmoqda. Ammo u oilasi baxti va farzandlari kamolini hayotidagi eng katta muvaffaqiyati sifatida e’tirof etadi.

— Samarqand viloyatining Pastdarg‘om tumanida kamolga yetganman, — deydi u. — Bolaligimdan harbiy bo‘lishni orzu qilib, maktabda a’lo baholarga o‘qidim. Sport bilan astoydil shug‘ullanib, tuman, viloyat miqyosida uyushtiriladigan musobaqalarda ko‘plab sovrinlarni yutdim. Harbiy xizmatdan so‘ng shartnoma asosida xizmatni davom ettirib, yigirma yildan ziyodroq vaqt mobaynida samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqdaman.

Aytish joizki, Toir Yaxshiboyev oilasi bugungi kunda Farg‘ona shahridagi eng namunali oilalar sirasiga kiradi. Oilaning uch farzandi oliy ta’lim muassasasi talabasi. Elnur va Shahzoda Farg‘ona davlat universitetida o‘qiyotgan bo‘lsa, Abbos Toshkentdagi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida tahsil olmoqda.

— Farzandlarimizning ma’nan va jismonan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha imkoniyatdan unumli foydalanishga harakat qilamiz, — deya suhbatni davom ettiradi qahramonimiz. — Shu bois to‘rt farzandimiz ham bir necha xorijiy tillarni o‘rganib, ilm-fan, sport sohasida quvonarli natijalarga erishib kelayotir. Kelajakda farzandlarim ham qaysi sohada bo‘lmasin yurt xizmatiga kamarbasta bo‘lishiga ishonaman.

Toir Yaxshiboyev hayot sinovlarida chiniqqan harbiy. U 1999-yili poytaxtimizda sodir etilgan qo‘poruvchilik harakatida terrorchilarga qarshi kurashda hamda Oliy Majlis binosi xavfsizligini ta’minlashda jonbozlik ko‘rsatdi.

2001-yilning iyun oyida Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida aniqlangan noqonuniy qurolli guruhlarni qidirish va yo‘q qilish jarayonida qiyinchiliklarni sabot bilan yengib, o‘zining vatanparvarligi va harbiy qasamyodiga sodiqligini isbotladi.

U harbiy xizmati davomida huquqni muhofaza qiluvchi idoralar o‘rtasida o‘tkazib kelinayotgan bir qator ko‘rik-tanlovlarda ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni egallagan. O‘z navbatida, yosh avlodni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash borasida ham hamisha faol. O‘quv va amaliy mashg‘ulotlar mobaynida shogirdlariga sohadagi ko‘p yillik tajribalarini o‘rgatib kelmoqda.

Harbiy-vatanparvarlik sohasidagi namunali xizmati uchun bir qator ko‘krak nishonlari bilan taqdirlangan.

— Milliy gvardiya o‘tgan qisqa davrda tinch va osoyishta hayot, jamoat xavfsizligini saqlashda xalqimiz ishonchiga sazovor bo‘lib ulgurdi, — deydi u. — Jarayondagi burch va mas’uliyatga sadoqat bilan xizmat qilish, hamisha burchga sodiq bo‘lish zimmamizdagi eng muqaddas vazifa.

Darhaqiqat, harbiylik doimiy mas’uliyat, bir umr qasamyodga sodiq bo‘lib qolish esa harbiy xizmatchi uchun yuksak sharafdir.

**“Xalq so‘zi”.**

## Eng oliy tuyg‘u

*14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan Sirdaryo viloyatida harbiy-vatanparvarlik mavzuida madaniy-ma’rifiy, ommaviy sport tadbirlari, uchrashuvlar tashkil etilmoqda.*



Jumladan, Milliy gvardiyaning Sirdaryo viloyati bo‘yicha boshqarmasi va Qo‘riqlash boshqarmasi harbiy xizmatchilari ishtirokida Guliston tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatda kitobning insoniyat hayotida tutgan o‘rni, kitobxonlik madaniyatiga bag‘ishlangan davra suhbati o‘tkazildi.

Harbiy xizmatchilar va o‘quvchilar o‘zlari o‘qigan asarlar, kitobning yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi muhim ahamiyati haqida so‘z yuritishdi. Va o‘quvchilar qiziqtirgan savollariga javoblar oldi.

Tadbir davomida faxriylar, harbiy xizmatchilar va o‘quvchilar ishtirokida shaxmat-shashka musobaqasi o‘tkazildi.

G‘oliblarga esdalik sovg‘alar topshirildi.

Sirdaryo tumanida joylashgan harbiy qismda Milliy gvardiyaning Sirdaryo viloyati bo‘yicha boshqarmasi xodimlari ishtirokida “Xalq va armiya — bir tanu bir jondir” shiori ostida uch avlod uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Keksa avlod vakillari yosh vatanparvarlarga o‘z umr yo‘li va hayotiy tajribalari, harbiy kasb mas’uliyati, burchga sadoqat hamda “Ustoz — shogird” an’anasining beqiyos o‘rni haqida so‘zlab berdi. Bunga javoban yosh harbiy xizmatchilar ular izidan borib, qutlug‘ ona zaminning har bir qarichini muqaddas bilgan holda Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilajaklarini izhor etdilar.

Milliy gvardiyaning Sirdaryo viloyati bo‘yicha boshqarmasi va Qo‘riqlash boshqarmasining bir guruh harbiy xizmatchilari bayram arafasida bir qancha xonadonlarga tashrif buyurib, shart-sharoitlar, bolalarning o‘qishlari, kitob mutolaasi uchun yaratilgan qulayliklar bilan tanishdi.

**Ahmadali ShERNAZAROV**
**(“Xalq so‘zi”).**



## YANGI NASHR

*Bugun Prezidentimiz tashabbusi bilan “Xalq va armiya — bir tanu bir jondir” degan g‘oya asosida Qurolli Kuchlarni xalqqa yaqinlashtirish, harbiy sohada olib borilayotgan ishlar haqida fuqarolarni tanishtirib borish, tizimda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, ayni paytda navqiron avlod o‘rtasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.*

Bu borada mutlaqo yangi tuzilma — harbiy-ma’muriy sektorlar barcha hududda samarali faoliyat yuritayotgani muhim ahamiyat kasb etyapti.




Armiya va xalq birligini ta’minlashga qaratilgan ishlar keng qamrovli bo‘lib, barcha bo‘g‘indagi hokimiyat va boshqaruv idoralari, mahalla, yoshlar, xotin-qizlar, nuroniylar tashkilotlari, ta’lim-tarbiya muassasalarida uyushqoqlik bilan olib borilayotir.

Bu yildan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi muassisligida nashr etila boshlangan “Xalq va armiya — bir tanu bir jon” ilmiy-amaliy va ommabop jurnali bu boradagi ishlarni yanada kuchaytirish, mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yanada chuqurroq tushuntirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilar mazkur nashr vositasida milliy armiyamizda harbiy jangovar salohiyat va ruhiy-ma’naviy qudratni yanada yuksaltirish borasida olib borilayotgan ishlar, erishilayotgan yutuqlar haqida yaqindan tanishib borishi mumkin.

Jurnalning nishona sonida tahririyat jamoasiga ijodkor ziyolilarning, yozuvchi va shoirlarning, olimlarning, harbiy soha fidoyilarining dil so‘zlari, tabriklari, fikr-mulohazalari, shuningdek, Qurolli Kuchlar tizimida olib borilayotgan islohotlar haqidagi tahliliy maqolalar o‘rin olgan.

“Xalq va armiya — bir tanu bir jon” jurnali o‘zbek, rus va ingliz tillarida hamda lotin, krill yozuvida chop etiladi. Ishonamizki, ushbu yangi nashr xalqimizni armiyamizga, armiyamizni esa xalqimizga yanada yaqinlashtiradi.

**“Xalq so‘zi”.**

## Ona Vatanga sadoqat tarannumi

*Mamlakatimizdagi barcha tashkilot va korxonalarda, mehnat jamoalari, mahallalarda, ta’lim-tarbiya muassasalarida O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bo‘lib o‘tmoqda.*

Shunday bayram tadbirlaridan biri respublikamizning energetika tarmog‘i uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlashga ixtisoslashtirilgan “Moskva energetika instituti” milliy tadqiqot universiteti (MTU)da tashkil etildi.

Avvalo aytish kerakki, bu tadbir har galgidan umuman o‘zgacharoq — talabalar tomonidan tayyorlangan ssenariy asosida o‘tkazilgani bilan e’tiborlidir. Dastavval O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi alohida namunali-ko‘rgazmali orkestri tomonidan Davlat madhiyasi ijro etildi.

Shundan so‘ng teatrlashtirilgan konsert dasturida orkestr jamoasining vatanparvarlik ruhidagi kuy va qo‘shiqlari yig‘ilganlarga ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi. Talaba-yoshlar tomonidan harbiy mavzuga bag‘ishlangan sahna ko‘rinishlari, raqs va kuy-qo‘shiqlar ijro etildi, she’rlar o‘qildi.

Tadbirda so‘zga chiqqan Vatan himoyachilari, faxriy harbiylar mamlakatimiz Qurolli Kuchlarining jangovar tayyorgarligini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, xalqaro nufuzini ko‘tarish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, sohada olib borilayotgan islohotlar haqida so‘z yuritdi.

— Prezidentimizning “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida ko‘rsatib o‘tilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan biri mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirishdan iborat, — deydi “Moskva energetika instituti” MTU ijrochi direktori, professor Hojiakbar Daliyev. — O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi hamda Mudofaa doktrinasi asosida harbiy-ma’muriy sektorlar tashkil etildi, mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan harbiy xizmatchilarga munosib ish va turmush sharoitlari yaratib berilmoqda. Milliy armiyamizning mintaqaviy, xalqaro reytinglardagi, o‘tkazilayotgan har xil musobaqalardagi ko‘rsatkichlari yuqorilamoqda.

— Milliy, mintaqaviy va global xavfsizlikka qarshi turfa tahdidlar paydo bo‘layotgan bugungi kunda xalqimizning tinch va osuda hayot kechirishi, chegaralarimiz daxlsizligini saqlash har birimizning muqaddas burchimiz, — deydi fizika-matematika fanlari doktori, “Moskva energetika instituti” milliy tadqiqot universiteti fakultet dekani, professor Bahrom Egamberdiyev. — Bu xavf-xatarlar barchamizni ogoh bo‘lishga chorlaydi. Shuning uchun Qurolli Kuchlarimizning jangovar qobiliyati mustahkamlanmoqda, islohotlar samarasi o‘laroq milliy armiyamiz har qanday tahdidlarga munosib zarba bera oladigan darajada takomillashtirildi va modernizatsiyalashtirildi. Yoshlarimizni Vatanga sadoqat, mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash esa biz o‘qituvchi va murabbiylarning oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.



Suratlar “Xalq so‘zi” fotojamlamasidan olindi.

Tadbir yakunida talabalarga fidoyilik bilan saboq berayotgan professor-o‘qituvchilar jamoasining bir guruhi, shuningdek, “Xalq va armiya — bir tanu bir jondir” g‘oyasi ostida Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan teatrlashtirilgan chiqishlarni tashkil etgan talaba-yoshlar ta’lim muassasasining tashakkurnoma hamda faxriy yorliqlari bilan taqdirlandi.

**Nurulloh OSTONOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# IJTIMOIY HIMOYA — aniq, manzilli va shaffof

*Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy davlat barpo qilish g‘oyasi ko‘p millatli xalqimizning yakdil qo‘llab-quvvatlashi bilan 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendum orqali yangilangan Konstitutsiyada alohida tamoyil sifatida qayd etildi.*

*Ayni jarayonda aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sifatini tubdan oshirish hamda ushbu sohada jahon andozalariga mos mutlaqo yangi tizimni joriy qilish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Davlatimiz rahbarining o‘tgan yil 1-iyun kuni imzolangan "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Farmoni davlat tomonidan ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ko‘lami hamda turlarini kengaytirish uchun huquqiy asos bo‘ldi.*

## G‘amxo‘rlik

Farmonga ko‘ra, ijtimoiy sohani isloh qilish maqsadida 15 ta vazirlik va idora tizimida tarqoq bo‘lgan ijtimoiy xizmatlar umumlashtirilib, ushbu yo‘nalishdagi vazifalar o‘zaro muvofiqlashtirildi.

Avvallari ijtimoiy xizmat mahalla darajasida to‘liq qamrab olinmagan bo‘lib, faqat keksa yoshdagi hamyurtlarga xizmat ko‘rsatilar edi. Endilikda eng quyi bo‘g‘in — mahalla darajasida professional ijtimoiy xizmat yo‘lga qo‘yildi.

Mahallaning o‘zida kompleks ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘rsatish tizimini shakllantirish, ijtimoiy himoyaning samaradorligini oshirish maqsadida mamlakatimizdagi 28 ta tuman (shahar)da tajriba tariqasida "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi. Ayni paytda ushbu markazlarda yordamlar ko‘rsatishning yangi tizimi bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilmoqda.

### Inson omili ishtirok etmaydi

— Keyingi yillarda aholiga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar va yordamning manzilliligini yanada oshirish, ijtimoiy himoyaning tartib-taomillarini raqamlashtirish borasida bir qator muhim hujjatlar qabul qilindi, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo‘lim boshlig‘i Farrux Sulaymonov. — Xususan, davlatimiz rahbarining Farmon va qarorlari asosida yurtimizda ijtimoiy nafaqalarni tayinlash to‘g‘risidagi arizalarni ko‘rib chiqish va ularni tayinlash jarayoniga "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi bosqichma-bosqich joriy etildi.

O‘z navbatida, 14 yoshgacha bolalari bo‘lgan oilalarga nafaqa hamda bola 2 yoshga to‘lguniga qadar uni parvarish qilish nafaqasi o‘rniga kam ta’minlangan oilalarga bolalar nafaqasi tayinlanadigan bo‘ldi. Bunda:

inobatga olinadigan bolalar yoshi 14 dan 18 yoshgacha oshirildi;

to‘lov muddati 6 oydan 12 oygacha uzaytirildi;

uning miqdori oiladagi bolalar sonidan kelib chiqib belgilanishi yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, yangi tartib asosida kam ta’minlangan oilalarga nafaqa to‘lovlari "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi orqali amalga oshirib kelinayotir. Mamlakatimizda bolalar nafaqasi va moddiy yordam oluvchi oilalar soni 2,1 milliondan ortdi va ushbu ko‘rsatkich 2020-yildagiga nisbatan 2,8 barobar ko‘pdir. 2023-yilning yanvar — oktabr oylarida nafaqa to‘lovlari uchun Davlat budjetidan 9,1 trln. so‘m mablag‘ xarajat qilindi.

Ammo joylarda o‘tkazilgan o‘rganishlar ijtimoiy nafaqalarning manzilliligini yaxshilash uchun tizimdagi mavjud ayrim mezonlarni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Bu borada Vazirlar Mahkamasining o‘tgan yil 10-noyabr kungi "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi orqali kam ta’minlangan oilalarni aniqlash va ularga ijtimoiy nafaqalar tayinlash bo‘yicha elektron shaklda ariza berishni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori muhim dasturilamal bo‘lishi, shubhasiz.

Qarorga ko‘ra, 2024-yilning aprel oyidan boshlab ortiqcha ovoragarchiliklarsiz onlayn shaklda bolalar nafaqasi va moddiy yordamga ariza topshirish imkoniyati yaratiladi. Shu tariqa bunday arizalarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YAIDXP) orqali yuborish mumkin.

Shu bilan birga, yangi tashkil etilgan "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi xodimlariga fuqarolarning bevosita roziligi bilan "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi orqali kam ta’minlangan oilalarni aniqlash va ularga ijtimoiy nafaqalar tayinlash bo‘yicha elektron shaklda ariza taqdim qilish huquqi beriladi.

### Oila sharoiti har oyda o‘rganiladi

Zamonaviy mezonlar bo‘yicha ijtimoiy nafaqalarni tayinlash tartiblariga ham bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

— Birinchi navbatda, ijtimoiy nafaqa tayinlashda inobatga olinmaydigan yengil avtotransport vositasining ishlab chiqarilgan muddati 7 yildan 12 yilga o‘zgartirilmoqda, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi yetakchi mutaxassisi Surayyo Otaqo‘ziyeva. — Shuningdek, endilikda nafaqa tayinlashda ruhiy kasalligi sababli dispanserda rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan fuqarolardan bandlik talab etmaslik bo‘yicha imtiyoz belgilanmoqda. Kiritilayotgan yana bir o‘zgartishga muvofiq, rasman nikohi bekor qilinmagan aliment to‘layotgan er (xotin) nafaqa tayinlashda oila tarkibiga kiritilmaydi. Bu alohida yashab kelayotgan, lekin nikohi rasman bekor qilinmagani uchun daromadi va bandligi umumiy baholanadigan oilalar uchun juda ham muhimdir.

Boisi amaliyotda alohida yashayotgan bo‘lsa ham turmush o‘rtog‘ining katta miqdordagi ish haqi yoki avtomashinasi mavjudligi sababli nafaqa tayinlash rad etilishi holatlari ko‘p kuzatiladi. Endilikda bandlik organlariga ish qidiruvchi yoki maslahat olish uchun murojaat qilgan fuqarodan nafaqa tayinlashda rasmiy bandlik talab etilmaydi. Bundan tashqari, kiritilgan yana bir o‘zgarishga ko‘ra, fuqaro 3 oy davomida ishga kirmasa, kasbga o‘qimasa, tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilmasa hamda ish bo‘yicha takliflarni rad etsa, ijtimoiy nafaqa to‘lovi to‘xtatiladi.

Amaldagi tartib bo‘yicha oila a’zosining chet elda ishlayotgani to‘g‘risidagi ma’lumot mahalla raisi tomonidan berilar edi. Shu sababli, amaliyotda inson omili natijasida ushbu ma’lumotni berishda noto‘g‘ri taqdim etish holatlari mavjud. Bundan buyon fuqaroning chet elda ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar Personallashtirish agentligi axborot tizimidan elektron shaklda olinadi.

Aytish joizki, shu paytgacha nafaqa tayinlanganidan so‘ng oilaning iqtisodiy holati yaxshilanganligi qayta baholanmas hamda muddat yakuniga qadar to‘lov amalga oshirilardi. Endi esa ijtimoiy nafaqa tayinlanganidan so‘ng axborot tizimi orqali har oyda oilaning iqtisodiy ahvoli avtomatik ravishda monitoringdan o‘tkaziladi, ko‘chmas mulk, avtotransport vositasi xarid qilingan yoki yuqori ish haqi olingan hollarda nafaqa to‘lovi to‘xtatiladi.

Nafaqa tayinlangan oilada navbatdagi bola tug‘ilganida bolalar nafaqasi miqdori avtomatik ravishda qayta hisoblanadi. Ijtimoiy nafaqa tayinlashda oilaning har bir a’zosiga jami bir oylik o‘rtacha daromad minimal iste’mol xarajatlari miqdoridan oshmaganda kam ta’minlangan deb e’tirof etiladi. Bu kabi o‘zgarishlar ijtimoiy nafaqa to‘lovlari manzilliligini oshirish va Davlat budjetidan ajratilayotgan mablag‘larning samarali ishlatilishiga xizmat qiladi.

### Zamonaviy mezonlarga mos markazlar

Darhaqiqat, davlatimiz rahbarining maqola avvalida keltirilgan Farmoniga ko‘ra, Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilishi bilan ushbu tizimda jahon andozalari darajasida faoliyat olib borish imkoniyati yaratildi.

— Yangicha ish yuritishga o‘tish yuzasidan ishlab chiqilgan me’yoriy hujjatlarga ko‘ra, 2024-yil 1-yanvargacha tuman, shahar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va yordamlar ko‘rsatish tizimini tashkil etish hamda to‘plangan tajribadan kelib chiqib, 2024-yil boshidan barcha bo‘g‘inni to‘la ishga tushirish maqsad qilingan va bunga amalda erishmoqdamiz, — deydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i Ibrohim Hojiyev. — Bu borada dastlabki bosqichda 26 turdagi xizmatlar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, joriy yil boshidan ular soni 49 taga yetkazilmoqda.

Ayni yo‘nalishda vazifalar ijrosiga jadal kirishilib, o‘tgan qisqa vaqt ichida ijtimoiy xizmat va yordamlarning pasportlari ishlab chiqildi. Bir paytning o‘zida "Ijtimoiy xodim to‘g‘risida"gi vaqtinchalik Nizom, vaqtinchalik yo‘riqnoma, xodimlarning odob-axloq qoidalari va "Mahallaning ijtimoiy pasporti" singari zarur hujjatlar tasdiqlandi. Shahar va tumanlardagi markazlar bosqichma-bosqich ishga tushirilib, malakali xodimlar bilan ta’minlandi. Maxsus ishchi guruh tomonidan esa aholi toifalari ajratib olinib, "mahalla yettiligi" va patronaj hamshiralar tomonidan xatlovdan o‘tkazildi.

Ma’lumotlarga qaraganda, Namangan viloyatida 3 ming 761 nafar bir o‘zi yashovchi va yolg‘iz keksalar, 74 ming 473 nafar nogironligi bo‘lgan va 254 ming 877 nafar "Yagona ijtimoiy himoya reestri"da turuvchi fuqarolar, 621 nafar tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan shaxslar, 679 nafar yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘rsatilayotir.

Ijtimoiy himoya samaradorligini oshirish maqsadida Prezident qarori bilan respublikadagi 28 ta tuman va shaharda tajriba tariqasida "Inson" ijtimoy xizmatlar markazi tashkil etilishi belgilangan edi. Farg‘ona viloyatining Dang‘ara tumanida birinchi bo‘lib shunday markaz ish boshlagan. Zamonaviy binoda joylashgan muassasada 20 nafardan ziyod malakali mutaxassislar mahallalarga majmuaviy xizmat ko‘rsatmoqda.

Agentlikning Farg‘ona viloyati boshqarmasi boshlig‘i Elyorbek Ahronqulovning aytishicha, bugungi kunda viloyatda 87 mingdan ko‘proq nogironligi bo‘lgan shaxslar, qariyb 3 ming nafar o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz keksalar, 3,5 mingdan ziyod protez-ortopediya moslamalariga muhtojligi bo‘lgan shaxslar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi yordamidan foydalanishga kirishdi.

2024-yildan yana yangi 23 ta ijtimoiy xizmat yo‘lga qo‘yilib, ruhiy-ijtimoiy yordam mobil xizmati tashkil etiladi. Huquqshunos va psixologlardan iborat tarkibdagi ushbu guruhlar orqali og‘ir vaziyatga tushib qolgan, ko‘makka muhtoj bo‘lganlarga manzilli shoshilinch ruhiy-ijtimoiy hamda huquqiy xizmatlar ko‘rsatiladi.

Ayni chog‘da Xorazm viloyatining Urganch tumani, Samarqand viloyatidagi Paxtachi tumani hamda Kattaqo‘rg‘on shahri, Buxoro viloyatining Qorako‘l tumani, qo‘yingki, mamlakatimizning barcha viloyatlarida tajriba tariqasida tanlab olingan 28 ta shahar-tumanda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari binolari navbati bilan foydalanishga topshirilyapti. Ularda nogironlikni belgilashdan tortib, protez-ortopediya jihozlari bilan ta’minlash, sanatoriylarga yuborish, psixologik yordam va ijtimoiy nafaqa tayinlash bo‘yicha barcha turdagi xizmat va yordamlar ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi.

Muxtasar aytganda, bu kabi izchil sa’y-harakatlardan ko‘zlangan maqsad, birinchi navbatda, manzilli himoyalashning professional tizimini joriy qilish, ko‘makka muhtoj qatlamning manfaatlarini to‘liq ta’minlash, og‘ir ahvolga tushib qolgan insonlarga yakka tartibda yondashish, ijtimoiy sug‘urta imkoniyatlarini kengaytirish va nogironligi bo‘lgan shaxslarning hayot kechirishi uchun qulay muhit yaratishdir.

Demak, ijtimoiy himoya tizimini milliy va jahon andozalari darajasida takomillashtirish yo‘lida tashlanayotgan dadil qadamlar yaqin istiqbolda ro‘yobga chiqariladigan yanada ko‘lamli ishlar, yangi O‘zbekistonda "Inson qadri ulug‘" tamoyili asosida hayotga tatbiq etilayotgan ezgu tashabbuslar ijobatiga xizmat qiladi.

**Botir MADIYOROV**
**("Xalq so‘zi").**

Spektakl

## Abu Muin Nasafiy haqida ilk sahna asari

*Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatrida davlat buyurtmasi asosida sahnalashtirilgan "Abu Muin Nasafiy" spektaklining premyerasi bo‘lib o‘tdi.*



Ta’kidlash joizki, islom dunyosida "Haqiqat qilichi" rutbasi bilan tanilgan Abu Muin an-Nasafiyning ilmiy-ma’naviy merosini tadqiq etish, asarlaridagi bugungi kun uchun dolzarb bo‘lgan hikmatlarni yosh avlodga yetkazish ustuvor ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqqan holda so‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan Abu Muin Nasafiyning ilmiy merosini tadqiq va targ‘ib qilish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri ijodiy jamoasi tomonidan sahnalashtirilgan "Abu Muin Nasafiy" tarixiy dramasi ham buyuk bobokalonimiz nomini, ayniqsa, yosh avlodga keng tanitish, ilmiy merosini ommalashtirishda yana bir muhim qadam bo‘ldi.

Spektaklda Abu Muin Nasafiyning ilm izlab Samarqandga borishi, notanish shahar, begona odamlar orasida chekkan mashaqqatlari sahnaga olib chiqilgan. E’tiborlisi, bu davrda alloma ham ilm olgan, ham o‘zini namoyon qilgan.

Ushbu spektaklni taniqli adabiyotshunos olim Nafas Shodmonovning tarixiy drama janridagi asari asosida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Valixon Umarov sahnalashtirgan. Rollarni teatrning mahoratli aktyor va aktrisalari maromiga yetkazib ijro etgan.

Yangi spektakl taqdimotiga madaniyat va san’at sohasi vakillari, keng jamoatchilik, yoshlar taklif qilindi.

**"Xalq so‘zi".**

Zakovat

## Intellektual o‘yin

*Muhammadsharif So‘fizoda nomidagi Namangan viloyati bolalar kutubxonasida yoshlarni kitob mutolaasiga qiziqtirish, ularning dunyoqarashi va erkin fikrlashini shakllantirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni tez-tez uyushtirish an’anaga aylangan.*




Kuni kecha bu yerda umumta’lim maktablarining 7 — 11-sinf o‘quvchilari orasidan saralangan bilimdonlar o‘rtasida "Zakovat" intellektual o‘yini tashkil etilib, ularning zukkoligi sinovdan o‘tkazildi. Unda jamoalarning 70 nafardan ziyod bilimdonlari o‘zaro bahslashdi.

O‘quv fanlari, ma’naviyat, tarixiy faktlar, urf-odat va qiziqarli voqealar bilan bog‘liq murakkab savollar qatnashchilarni birmuncha o‘ylantirganiga qaramay, yoshlar ularga aniq javob qaytarishga harakat qilishdi.

— "Zakovat" yoshlarning bilimini charxlaydi, dunyoqarashini kengaytiradi, fanlarni puxta o‘zlashtirishga chorlaydi, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, — deydi Pop tumanidagi 67-umumta’lim maktabi "Bilimdonlar" jamoasi sardori Sirojiddin Ubaydullayev. — Biz ham jamoamiz bilan bilimimizni sinovdan o‘tkazdik. Bu bizga o‘zgacha ruh va shijoat berdi.

Yakunda "Bilimdonlar" jamoasi eng yuqori natijaga erishib, birinchi o‘rinni egalladi. Mingbuloq va Chortoq tumanlaridan kelgan yoshlarga keyingi faxrli o‘rinlar nasib etdi.

G‘olib jamoalar homiylarning esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

**Qudratilla NAJMIDDINOV**
**("Xalq so‘zi").**

# TUPROQQAL’ADA SAKSOVULZOR BARPO QILINMOQDA

*Orolbo‘yi hududida ekologik holat keskinlashuvi nafaqat yurtimiz ahlini,balki butun dunyo jamoatchiligini,olim va mutaxassislarni ham tashvishga solmoqda. Chunki qurigan dengiz hududidagi tanglik yirik mintaqaviy ekologik holatni vujudga keltirmoqda. Albatta,bu dengiz havzasi yaqinida yashaydigan,xususan, Xorazm viloyati hududida istiqomat qilayotgan aholi salomatligiga ham ta’sir o‘tkazmasdan qolmayapti.*

## Ekotizim

Shu bois shamol tufayli dengizning qurigan hududidan ko‘tarilgan qum va tuzni ushlab qolish choralarini ko‘rish uchun sun’iy o‘rmonlar bunyod etishning ahamiyati juda katta.

Mamlakatimiz hududida o‘rmonzorlar, shuningdek, Orol dengizi, Orolbo‘yi hududlarida 2022 — 2026-yillarda 50 ming gektar yashil qoplamalar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilangan bo‘lib, shu asosda har yili amaliy sa’y-harakatlar olib borilayotir. Xususan, Xorazm viloyatining Tuproqqal’a tumani hududida o‘tkazilgan saksovul ekish tadbiri ham ana shu xayrli ishlarning mantiqiy davomidir.

Tadbirda o‘rmonchilar, Ekopartiya a’zolari, Urganch davlat universiteti o‘qituvchilari va talabalari, faol fuqarolar ishtirok etdi. 2024-yilda tumanning cho‘l hududida saksovul o‘simligidan 10 ming gektar yashil qoplamalar — himoya o‘rmonzorlarini barpo qilish belgilangan bo‘lib, bu ishlar tezkorlik bilan olib borilyapti. Asosan, 9800 gektar joyda saksovulning urug‘i va 200 gektarida ko‘chatini ekish bo‘yicha sa’y-harakatlar davom etmoqda.

Tadbir doirasida cho‘l o‘simliklari, xususan, saksovulning asosiy xususiyati va ahamiyati to‘g‘risida davra suhbati uyushtirildi. Unda saksovullar sahro tuprog‘ini shamollardan pana qilib, hududlar cho‘llashuvining oldini olishda, sahro ekotizimini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlandi.

— 2018-yil kuz mavsumidan boshlab, Orol dengizining qurigan tubida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlangan keng ko‘lamli ish mana, bugun Qizilqum cho‘liga ham ko‘chdi, — dedi O‘zbekiston Ekologik partiyasi Ijroiya qo‘mitasi raisining yoshlar va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Kamol Jumaniyozov. — Partiyamiz bu ezgu tashabbusni qo‘llab-quvvatlagan holda olimlarni jalb qilib, ilmiy asosda amalga oshirmoqda. Shu o‘rinda nima uchun bu ishlar qishki mavsumda boshlanyapti, degan savol tug‘ilishi mumkin. Boisi aynan cho‘l hududida yog‘ingarchilik yil davomida 90 — 100 mm. tushadigan bo‘lsa, uning 80 — 90 foizi yanvar va fevral oylariga to‘g‘ri keladi. Demak, saksovul urug‘larini ekish uchun qish mavsumi maqbul muddat hisoblanadi.

Mutaxassislar fikriga ko‘ra, Orolning qurigan tubidan uchgan zararli tuzlar shamol orqali yurtimizning boshqa hududlariga tarqab, aholi salomatligi va qishloq xo‘jaligi ekinlari rivojiga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Ekiladigan cho‘l o‘simliklari esa qum zarralarini ushlab qoladi va ekologik hamda



favqulodda holatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, tumandagi ekinzorlar qumdan muhofaza qilinadi, madaniy landshaftlar tomon esayotgan shamol eroziyasining zararli ta’siri kamayadi. Cho‘ldagi qum barxanlari sirti yashil saksovullar bilan qoplanishi hayvonot olami uchun qulay ekologik muhit yaratadi, ularning genofondi saqlab qolinadi.

**F. XUDOYBERDIYEV**
**("Xalq so‘zi").**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142. 15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 19.02 Topshirildi — 23.45 1 2 3 4 5 6